

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi**  
**2024-2025 o‘quv yili**  
**I-chorak**  
**choraklik summativ baholash**  
**test savollari.**  
**7-sinf**  
**1-variant**

1-20 matematika, 21-35 ona tili va adabiyoti, 36-45 biologiya  
(B-bilish; Q-ko‘llash; M-mulohaza ga oid test savollari)

O‘quvchi (F.I.SH).....

**1. (B 1,5 ball)** Berilgan qavslari ifodalarda qavslarni oching va to‘g‘ri javoblarni mos keltiring.


I. $+(a + b - c)$	A. $a + b - c$
II. $-(-a + b + c)$	B. $a + b + c$
III. $-(-a - b - c)$	C. $a - b - c$
	D. $-a + b - c$

A) I-D, II-A, III-B    B) I-A, II-C, III-B    C) I-A, II-B, III-C    D) I-D, II-B, III-A

**2. (B 1,5 ball)** 0,00134 sonini standart shaklda yozing.

A)  $134 \cdot 10^{-5}$     B)  $1,34 \cdot 10^3$     C)  $13,4 \cdot 10^{-4}$     D)  $1,34 \cdot 10^{-3}$

**3. (B 1,5 ball)** Berilgan rasmdan foydalanib,  $a$  to‘g‘ri chiziqqa ham,  $b$  to‘g‘ri chiziqqa ham tegishli bo‘lmagan nuqtalarni toping.



A)  $A, D, C$  va  $E$     B)  $O$  va  $B$     C)  $O$     D)  $A$  va  $B$

**4. (B 1,5 ball)** Quyidagi jadvalda burchaklar va burchak turlari nomlari ketirilgan. Burchaklarni kattaligiga qarab ularning turlari mos keltirilgan. Quyidagi tasdiqlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang.

Nº	Tasdiqlar	to‘g‘ri	noto‘g‘ri
1	$145^\circ$ - o‘tmas burchak		
2	$180^\circ$ - o‘tmas burchak		
3	$89^\circ$ - o‘tkir burchak		

- A) noto‘g‘ri, to‘g‘ri, to‘g‘ri;      B) to‘g‘ri, noto‘g‘ri, to‘g‘ri;  
 C) to‘g‘ri, noto‘g‘ri, noto‘g‘ri;      D) noto‘g‘ri, to‘g‘ri, noto‘g‘ri;

**5. (Q 2 ball)** Algebraik ifodaning berilgan sonlarda qiymatini toping.

$$2c - 3ab + 4bc; \quad a = 1; b = 3; c = 2$$

- A) -1      B) 11      C) 19      D) -9

**6. (Q 2 ball)** Yo‘lovchi qishloqdan chiqib, shahar tomon jo‘nadi. U  $x$  kilometr piyoda yurganidan keyin avtobusga o‘tirdi va avtobusda  $t$  soatda shaharga yetib keldi. Agar avtobus 55 km/h tezlik bilan harakat qilgan bo‘lsa, qishloq bilan shahar orasidagi  $S$  masofani toping.

- A)  $S = x + 55t$       B)  $S = (x + 55)t$       C)  $S = xt + 55$       D)  $S = 55t - x$

**7. (Q 2 ball)** Hisoblang:

$$\frac{5^{17} \cdot 6^{41}}{5^{15} \cdot 6^{42}}$$

- A)  $\frac{25}{6}$       B)  $\frac{5}{6}$       C)  $\frac{6}{25}$       D)  $\frac{6}{5}$

**8. (Q 2 ball)**  $16^{18+n}$  soni  $2^{69+4n}$  sonidan necha marta katta?

- A) 2      B) 4      C) 8      D) 16

**9. (Q 2 ball)** Birhadni standart shaklga keltiring

$$abc^2 \cdot 2ab^3c \cdot 6abc$$

- A)  $12a^3b^4c^4$       B)  $12a^3b^5c^4$       C)  $12a^3b^5c^5$       D)  $12a^4b^5c^4$

**10. (Q 2 ball)** Qavslarni oching va o‘xshash hadlarni ixchamlang:

$$-4a + 5(3a - 2b) - 3(b - 3a)$$

- A)  $16a - 13b$       B)  $20a$       C)  $-20a + 13b$       D)  $20a - 13b$

**11. (Q 2 ball)** Qavslarni oching va o‘xshash hadlarni ixchamlang:

$$(6x^3 + 7x^2) + (-9x^3 + x^2) + (-10x^3 - 4x^2)$$

- A)  $13x^3 - 4x^2$       B)  $13x^3 - 10x^2$       C)  $-13x^3 + 4x^2$       D)  $7x^3 + 8x^2$

**12. (Q 2 ball)** Ko‘phadlarni ko‘paytiring:

$$(2a - 5b)(4a^2 + 10ab + 25b^2)$$

- A)  $8a^3 - 125b^3$       B)  $8a^3 + 125b^3$       C)  $8a^3 + 50ab + 125b^3$       D)  $8a^3 - 60ab$

**13. (Q 2 ball)** Noma’lum ko‘paytuvchini toping:

$$-24x^2 - 15x + 32x + 20 = (8x + 5) \cdot (?)$$

- A)  $(4x + 3)$       B)  $(4 + 3x)$       C)  $(4x - 3)$       D)  $(4 - 3x)$

**14. (Q 2 ball)**  $AB, BC, CD$  va  $DE$  kesmalar o‘zaro teng (rasmga qarang). Agar  $AD = a$  bo‘lsa,  $BE$  kesma uzunligi nimaga teng bo‘ladi?



- A)  $a$       B)  $2a$       C)  $\frac{4a}{3}$       D)  $\frac{2a}{3}$

**15. (Q 2 ball)** Agar qo‘shti burchaklarning biri ikkinchisidan o‘n bir marta katta bo‘lsa, bu burchaklar ayirmasini toping.

- A)  $150^\circ$       B)  $15^\circ$       C)  $165^\circ$       D)  $120^\circ$

**16. (Q 2 ball)** Soat mili 24 minutda necha gradusga buriladi?

- A)  $12^\circ$       B)  $24^\circ$       C)  $36^\circ$       D)  $8^\circ$

**17. (Q 2 ball)** Quyidagi tasdiqlar ichidan noto‘g‘risini toping.

- A) Eng katta vatar diametr bo‘ladi.
- B) To‘g‘ri burchakka qo‘shni burchak ham to‘g‘ri bo‘ladi
- C)  $AB$  nurni  $BA$  nur deb ham nomlash mumkin.
- D) Qo‘shni burchaklarning bissektrisalari o‘zaro perpendikulyar bo‘ladi

**18. (Q 2 ball)** Uzunligi 12 cm bo‘lgan  $AB$  kesma berilgan.  $AB$  nurda shunday  $C$  nuqta joylashganki,  $AC + BC = 14$  cm tenglik o‘rinli bo‘ladi.  $C$  nuqtani joylashgan o‘rnini toping.

- A)  $C$  nuqta  $A$  va  $B$  nuqtalar orasida
- B)  $C$  nuqta  $AB$  nurda  $B$  nuqtadan keyin 1 cm uzoqlikda
- C)  $C$  nuqta  $AB$  nurda  $B$  nuqtadan keyin 0,5 cm uzoqlikda
- D) tenglik o‘rinli bo‘ladigan qilib  $C$  nuqtani joylashtirib bo‘lmaydi

**19. (M 3 ball)**  $16^{19} \cdot 25^{39}$  ko‘paytma necha xonali son bo‘ladi?

- A) 76 xonali
- B) 78 xonali
- C) 75 xonali
- D) 58 xonali

**20. (M 3 ball)** Soat 11 dan 10 minut o‘tgan vaqt (11:10) da soatning soat va minut millari orasidagi kichik burchakni toping.

- A)  $82^\circ$
- B)  $95^\circ$
- C)  $85^\circ$
- D)  $92^\circ$

**21. (B – 2)** To‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini aniqlang.

- A) audiomatr, intellekt, pochtachi, videolavha,
- B) daxanaki, muloqat, suyiste’mol, intelekt
- C) dahanaki, intellekt, poshtachi, intirnet
- D) po‘chtachi, videolavxa, namayon

**22. (Q – 2,8)** -sa qo‘shimchasi istak-xohishni ifodalaydi (fe’lning munosabat shakli). Ushbu fikrga mos keladigan gap keltirilgan qatorni aniqlang.

- A) Til yolg‘on so‘zlashni boshlasa, ko‘zlarga boq, ko‘zlar aldamaydi.
- B) Tog‘amdan maktub kelsa edi, kelinoyimning ham chehrasi ochilardi.
- C) Bugun tog‘amdan biror xabar kelsa kerak, ko‘nglim sezyapti.
- D) Ular qutqarish maktubini bitgan bo‘lsa, biz orzularimiz haqida bitdik.

**23. (Q – 2,8)** Ushbu gapdan fonetik hodisalarga uchragan so‘zlarni aniqlang.

– Nega boshimda qoqqan qoziqday turibsan, haydamaysanmi aravangni – dedi Bashir iljaygancha sarg‘aygan tishlarini ko‘rsatib.

- A) qoqqan, sarg‘aygan
- B) iljaygancha, qoziqday
- C) qoziqday, sarg‘aygan
- D) aravangni, iljaygancha

**24. (Q – 2,8)** Parchada qo‘llangan olmoshlarning ma’noviy turlari tartib bilan keltirilgan qatorni aniqlang.

Men, buvim, Iliko va Illarion – xullas, barchamiz aytib bermoqchi bo‘lgan voqeа mana shu qishloqning chekka hovlisida sodir bo‘lgan edi.

- A) kishilik, belgilash, ko‘rsatish
- B) kishilik, belgilash, gumon
- C) ko‘rsatish, kishilik, belgilash
- D) kishilik, o‘zlik, ko‘rsatish

**25. (Q – 2,8)** Yasama sifatlar qatorini aniqlang.

- A) kuchli, beixtiyor, rahmdil
- B) duxobali, qo‘lqop, kichkina
- C) tog‘olcha, kechki, oppoq
- D) ertapishar, ko‘ndalang, hovliqma

**26. (Q – 2,8)** Qo‘shma sifatlar qatorini aniqlang.

- A) tog‘olcha, qo‘lqop, sariq rang
- B) ichakuzdi, qo‘ymijoz, rahmdil
- C) achchiqtosh, qirg‘iyko‘z, toshbag‘ir
- D) rangpar, sarosima, shifobaxsh

**27. (Q – 2,8)** So‘zlarni bog‘lashga xizmat qilgan bog‘lovchi qo‘llangan gapni aniqlang.

- A) Bilol qo‘lqopni kiydi hamda toza qorni dumaloqlab Alisherga, Alisher esa Bilolga otdi.
- B) O‘zi bilan kompas, cho‘ntak chirog‘i hamda bir juft issiq qo‘lqoplarini oldi.

C) Sovuq havoga ko‘nikmagan kishilarga qiyin, ammo Bilol o‘zida yo‘q xursand edi.

D) Hayron bo‘lmang, do‘stim, chunki qorni faqat ekranda tomosha qilganman-da.

**28. (Q – 2,8)** Ushbu ajratib ko‘rsatilgan jumla orqali muallif yetkazmoqchi bo‘lgan fikr keltirilgan qatorni aniqlang.

Ertasi kuni Eldor chizgan rasmlarini maktab burchagiga ilib qo‘ydi. Rasmlarining birida **daraxtni quchib turgan katta va kichik qo‘llar**, daraxt yonida ikkita bolasi bilan Turon yo‘lbarsi, ortida mavjlanib turgan dengiz tasvirlangan edi. Ostiga esa “Sizni asray olamiz!” deb yozilgan edi.

A) Kattalar kichiklarni doimo qo‘llab-quvvatlab, ularga yordam qo‘lini cho‘zishlari kerak.

B) Yer yuzidagi barcha insonlar bir-birlari bilan ahil va hamjihat bo‘lib yashashlari kerak.

C) Tinchlik uchun qilinayotgan sa'y-harakatlarga barchamiz o‘z hissamizni qo‘shamiz.

D) Tabiatni asrash hamda uni himoya qilish uchun barcha birdek harakat qilish kerak.

**29. (B – 2)** “Oqbo‘yin qissasiga tegishli parchalarni aniqlang.

1. Qo‘rquv bilmas yuragiga qiziqish oraladi. Shu qiziqish halpida devor oshdi... Chor atrofga alanglab, havoni iskadi. Qor hididan bo‘lak hidni tuymay, norozi g‘ingshidi. Shu dam hazin ulish yana qaytarildi.

2. ... Ko‘nglida unga nisbatan tariqcha shafqat sezmadni. Qaytanga g‘alabadan sarmast holda Mallaning jasadi atrofini uch qur aylanib chiqdi. So‘ngra qishloqni boshiga ko‘tarayotgan ariq bo‘yidagi itlar to‘dasiga e’tibor bermay, bir-bir bosgancha tepalik sari yurdi.

3. Osmon to‘la yulduzlarga boqqanicha o‘zga ohangda uvullab yubordi. Pastda qorayib turgan qishloqdagagi itlarning uni o‘chdi. Loaqal birortasi po‘pisaga hurmadi. To‘rtinchi yo beshinchini ulishidan so‘nggina To‘rtko‘z yaldoqlanib javob qaytardi.

4. Emishki, sher kuch-quvvatdan qolsa, burgut erkidan ajrasa, kaptar juftidan ayrilsa, yuragi yorilib o‘lar ekan. Bu yirtqichning yuragi birvarakayiga uchta musibatni ko‘tara olarmikin?

A) Faqat 3      B) 1, 2, 3, 4      C) 2, 3, 4      D) 1, 2, 3

**30. (Q – 2,8)** “Hovlidagi daraxt” asaridan voqealar ketma-ketlikda bayon qilinmasdan “tarixga” qaytilgan o‘rinlarni aniqlang.

1. Hovlimizdan oqib o‘tadigan ariq labidagi bu daraxt qishlog‘imizda yagona hisoblanardi. U eniga uncha tarvaqaylab ketmagan, xuddi butalganday qaddi tik, tanasi va shoxlari esa rahmatli bobomning hassasiday sip-silliq edi.

2. ... Kunlardan bir kuni shom mahali qo‘lidagi hassasini ariq labiga suqib, o‘zi tahorat olgani o‘tiribdi. Tahoratni olib, hassaga qo‘l uzatmoqchi ekan, shu payt mo‘jiza yuz bergenini ko‘rib, hayratdan yoqa ushlab qolibdi...

3. “Ey jonivor, sening tanningda namlik bor ekan-u, men shuncha vaqt gunohga botib seni sudrab yuribman... Mayli, unib-o‘sgin”, – deya hassasini shu yerda qoldiribdi.

4. Yozning o‘rtalari edi. Onam singlim va akamni ergashtirib qo‘shni qishloqda yashovchi bobomnikiga mehmonga ketishdi. Uyda otam bilan men yolg‘iz qoldik.

5. Otam daraxtga bolta yo qaychi urishga sira-sira ruxsat bermas, buni u og‘ir gunoh, shafqatsizlik deb bilar edi.

A) 3, 4, 5      B) 1, 2, 3      C) 2, 3      D) 1, 5

**31. (Q – 2,8)** Quyidagi parcha haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

Malla talvasada turib qoldi. Zora qaytib ketsa degan umidda Malla yer tirnab jon-jahdi bilan hurdi. Biroq raqibi **pinak buzmadni**, loaqal irillashni o‘ziga ep ko‘rmadi.

A) Parcha Normurod Norqobilovning “Oqbo‘yin” asaridan olingan bo‘lib, asarda it va inson munosabatlari o‘z aksini topgan. Ajratib ko‘rsatilgan iboraning ma’nosи: “parvo qilmay, ahamiyat bermay; beparvo, xotirjam”.

B) Parcha Ernest Seton-Tomsonning “Lobo” asaridan olingan bo‘lib, ajratib ko‘rsatilgan

iboraning ma’nosi: “beparvo, xotirjam”.

- C) Parcha Nurali Qobulning “Tubsiz osmon” asaridan olingen bo‘lib itning insonga vafosi, sadoqati haqida. Ajratib ko‘rsatilgan iboraning ma’nosi: “uyquga ketdi, ko‘zi ilindi”.  
D) Parcha Normurod Norqobilovning “Oqto‘sh” asaridan olingen bo‘lib, matnda ajratib ko‘rsatilgan iboraning ma’nosi: “uyquga ketdi”.

**32. (Q – 2,8)** “Chol va dengiz” qissasidan keltirilgan ushbu suhbat haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

- Ular meni yengib qo‘yishdi, Manolin, – dedi u. – Ular meni yengishdi.
- Ammo uning o‘zi seni yengolmabdi-ku, axir. Axir baliq seni yengmabdi-ku!
- A) Parchada cholning o‘ta og‘ir, samarasiz ovdan keyingi tushkun holati, Monolinning esa uning ko‘nglini ko‘tarish uchun bergen o‘rinli taskini aks ettirilgan.
- B) Cholning dengizda ko‘rgan tushi bilan o‘z kulbasida ko‘rgan tushidagi voqealarga nisbatan bolaning qariyaga bergen tasallisi ifodalangan.
- C) Baliqchilarining masxara va ermak qilishlariga chiday olmagan cholga nisbatan Monolinning hamdardligi aks ettirilgan.
- D) Baliqning suyagini ko‘rib befarosatlarcha fikr bildirgan ofitsiantdan ko‘ngli ranjigan cholga Monolinning dalda bergani aks ettirilgan.

**33. (B – 2)** “Chol va dengiz” qissasidan keltirilgan badiiy parcha(lar)ni aniqlang.

1. Inson bolasi yengilib, yengilganiga rozi bo‘lib ketaverish uchun yaratilmagan.
2. Keksayganda kishi yolg‘iz o‘zi kimsasiz qolmasin ekan, – deb o‘ylardi u. – Ammo bu ko‘rgilikdan qochib qutulib bo‘larmidi.
3. Emishki, sher kuch-quvvatdan qol-sa, burgut erkidan ajrasa, kaptar juftidan ayrilsa, yuragi yorilib o‘lar ekan. Bu yirtqichning yuragi birvarakayiga uchta musibatni ko‘tara olarmikin?
4. U yana muk tushib uxlар, bola esa yonida o‘tirib uning uyqusini ardoqlardi... Uning tushiga arslonlar kirar edi.

- A) 3, 2, 4      B) 1, 2, 3      C) 1, 2, 4      D) Faqat 3

**34. (B – 2)** Keltirilgan ma’lumotlar orasidan Zulfiya ijodiga tegishlilarini aniqlang.

1. Bir she’rida bahorning shabboda bo‘lib lirik qahramon farzandlarining yuzidan o‘pib, sog‘inchdan o‘rtangan qalbiga biroz taskin bergani aks ettirilgan.
2. Yana bir she’rida bahor qishning yoqasidan tutib so‘roq qilganida qish yig‘lab chekingani aks ettirilgan ajoyib tashbeh qo‘llangan.
3. “Sog‘inib” she’rida “Shu kunlarda bahorga zorman” misrasi har satr boshida takrorlangan.
4. Satrlarida lirik qahramonning “O, hayotning oliy butunligi! Insonga ufqlarni kengroq och” deya qilgan xitobi uchraydi.

- A) 1, 2, 3, 4      B) 1, 2, 3      C) 2, 3, 4      D) Faqat 3

**35. (M – 4)** Asqad Muxtor qalamiga mansub ushbu lirik parcha xulosasi aks etgan qatorni aniqlang.

Yer issiq, yer yumshoq, o‘zim ham yerdan,  
U ko‘rimmas menga bir marrasimon.  
Yo‘q, men abadiyman.  
Menga o‘lim yo‘q.  
Tirik tabiatning bir zarrasiman.

O, hayotning oliy butunligi!  
Insonga ufqlarni kengroq och,  
Jamiki dardlarga malham o‘zingsan,  
Azobli o‘ylarga yog‘du soch.  
Azobli o‘ylarga yog‘du soch...

- A) Ushbu misralar orqali muallif hayotning o‘tkinchilagini, hatto quyosh ham zavol topishini, shunday ekan insoniyat atrofidagilarni asrab-avaylashi, ularga quyosh kabi mehr ularshishi kerakligi haqidagi o‘ylarini aks ettirgan.

- B) Muallif borliq bilan insonning uyg‘unligini, shuningdek, har dam minnatdorlik hissini tuyib tursak-da, doimo ham yaqinlarimizga ko‘nglimizni ochavermaganimiz kabi quyoshdan ham

aslida har tong minnatdor bo‘lishimiz kerakligi kabi mushohadaga undaydigan fikrlarni ushbu satrlarida aks ettirgan.

C) Muallif borliqni, undagi ne’matlarni yakson qilayotgan insoniyatni ne’matlarni asrashga undash bilan birga, hatto quyoshning ham bir kun kelib so‘nishi haqida o‘zining dardchil satrlarida eslatib o‘tyapti.

D) She’riy parchada lirik qahramonning “Tiriklikning oxiri o‘limmi, yo‘q, bunday emas, men uchun o‘lim marra emas, men shu abadiy borliqning zarrasiman, demak men ham abadiyman!” kabi chuqur mushohadaga undaydigan fikrlari aks etgan.


**36. (B 2,5 ball)** Oshxona stoli ustida chumollilar paydo bo‘lib qolishini ko‘p kuzatgansiz. Anvar chumolilar soni non, qaynatilgan kartoshka bo‘laklariga qaraganda qovun va tarvuz kabi mahsulotlarda ko‘proq bo‘lishini kuzatdi. Anvarning ko‘nikmalari qaysi tadqiqot metodiga mos keladi.

- A. kuzatish      B. tajriba      C. taqqoslash      D. Ilmiy dalil

**37. (B 2,5 ball)** Ildizpoyalarga ega o‘simliklarni aniqlang.


- A. shirinmiya, gulsafsar    B. qamish, sabzi    C. kartoshka, shoyigul    D. g‘umay, kartoshkagul

**38. (B 2,5 ball)** Yorug‘lik mikroskopining 9- raqam bilan ko‘rsatilgan qismi nomi berilganjavob variantini aniqlang.



- A. obyektiv      B. makrovint      C. shtativ      D. tubus

**39. (B 4,5 ball)** Sxemada keltirilgan raqamlar ketma ketligida halqali chervyaganing sistematik birliklari to‘g‘ri berilgan javob variantini aniqlang.



- A. xordalilar ⊂ umurtqalilar ⊂ reptiliyalar ⊂ ilonlar  
B. xordalilar ⊂ umurtqalilar ⊂ reptiliyalar ⊂ tangachalilar  
C. umurtqalilar ⊂ xordalilar ⊂ amfibiyalar ⊂ oyoqsizlar  
D. xordalilar ⊂ umurtqalilar ⊂ amfibiyalar ⊂ oyoqsizlar

**40. (B 4,5 ball)** Jadval ustunlarida berilgan tirik organizmlarga xos xususiyatlarni o‘rganing. O‘rgangan bilimlaringizdan foydalanib, jadval qatorlariga mos keluvchi protoktistalar vakillari nomi to‘g‘ri muvofiqlashtirilgan javob variantini aniqlang. (- yo‘q, + ha )

Organizm	xromotofor	ko‘p hujayrali	tallom	parazit
1	+	+	+	-
2	+	-	+	-
3	-	-	-	+



A. 1 – ulotriks; 2 – xlorella 3– leyshmaniya

B. 1 – xlorella; 2 – ulva; 3 – infuzoriya tufelka

C. 1 – xlomidomanada; 2 – ulva; 3 – ichburug‘ amyobasi

D. 1 – spirogira 2 – nemalion; 3 – vabo vibrioni

**41. (B 4,5 ball)** Sxemada noma'lum o'simlikka berilgan xususiyatlarni o‘rganing. Quyida berilgan o'simlik rasmlaridan sxemaga mos keluvhi o'simlikni aniqlang.




A. 1- o'simlik

B. 3- o'simlik

C. 4- o'simlik

D. 2- o'simlik

**42. (B 4,5 ball)** Diagrammada berilgan o'simliklar nomini o‘qing. Raqamlar o‘rniga umumiy xususiyatlar mos keluvchi to‘g‘ri ma'lumotlar muvofiqlashtirilgan javob variantini aniqlang.



A. 1 – f; 2 – a; 3 – b      B. 1 – d; 2 – a; 3 – b      C. 1 – a; 2 – d; 3 – f      D. 1 – a; 2 – b; 3 – f

**43. (B 4,5 ball)** O‘rgangan bilimlaringiz asosida faqat hayvon hujayralari uchun tegishli xususiyatlар keltirilgan javob variantini aniqlang.

- a) hujayra ichiga moddalar fagasitoz usulida kiradi
- b) lizosoma kirgan oziqlarni parchalaydi
- d) epiteley hujayralari himoya funksiyasiga ega
- e) mitoxondriya energiya bilan ta’minlaydi.
- f) zahira sifatida asosan uglevodlar to‘planadi

A. b, d      B. a, d      C. d, e      D. b, f


**44. (B 4,5 ball)** Jadval qatorlarida va ustunlarida berilgan ma’lumotlarni tahlil qiling. Jadvalning qaysi qatorlarida o‘simplik va ularning to‘qimalariga xos xususiyatlар to‘g‘ri berilganligini aniqlang.

№	O‘simplik to‘qimalariga xos xususiyatlар	karam	bug‘doy
1	Suv o‘tkazuvchi nay hujayralari orqali tashiladi	ha	ha
2	Organik moddalar elaksimon nay hujayralari orqali tashiladi	ha	ha
3	Organik moddalar elaksimon hujayralar orqali tashiladi	yo‘q	ha
4	Kambiy hujayralari o‘simplik organlarining eniga o‘sishini ta’minlaydi	ha	yo‘q

A. 2, 4      B. 1, 2      C. 1, 3      D. 2, 3

**45. (M 5,5 ball)**

Rasmda delfinlar va ko‘rshapalaklarning exolakatsiya orqali ov qilish jarayonlari ifodalangan. Rasmda ko‘rganlaringiz va olgan bilimlaringiz asosida mulohaza qiling. Qaysi hayvonning tovush chastotasi balandroq bo‘ladi?



A. Ko‘rshapalaklar tunda ov qiladi, qorong‘ida tovushning ko‘proq yutilishi tufayli ko‘rshapalaklarning tovush chstotasi yuqori bo‘ladi.

B. Ko‘rshapalaklar ochiq atmosferada o‘ljani tutadilar, atmosfera zichligi past bo‘lganligi tufayli ko‘rshapalaklarning tovush chastotalari uzoqroqqa ketadi

C. Suvning zichligi havoga qaraganda yuqori ekanligi, tovushning tez tarqalishi tufayli delfinlarda ko‘rshapalaklarnikiga qaraganda tezroq qaytib aks-sado beradi.

D. Har ikkala hayvon ham asosan o‘ljalarini bir xil usulda tutishga moslashganliklari tufayli tovush chastotalari tezligi bir xil rivojlangan



PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO  
BAHOLASH ILMIY-AMALIY  
**MARKAZI**